

## ABDULLA QAHHORNING ‘BEMOR’ HIKOYASI TAHLILI

*Imomova Durdona Bektosh qizi*

*O‘zbekiston- Finlandiya pedagogika instituti*

*Filologiya fakulteti O‘zbek tili va adabiyoti*

*yo‘nalishi 1-bosqich talabasi*

### Annotatsiya

Mazkur maqolada Abdulla Qahhorning Bemor hikoyasida aks etgan davr muammolari va hikoyaning bugungi kundagi ahamiyati yoritilib beriladi.

**Kalit so‘zlar:**Chilyosin, baxshi, tabib, davr, bemor, nochorlik, ilimsizlik, tibbiyot, qoloqlik.

### Abstract

In this article, the problems of the period reflected in the story of the Patient by Abdulla Qahhor and the significance of the story today are highlighted.

**Key words:**Chilyosin, bakhshi, doctor, era, patient, helplessness, ignorance, medicine, backward-ness.

O‘zbek adabiyotning yirik namoyondasi Abdulla Qahhorning ijodini hikoyalarsiz tassavur qilish qiyin. Ijodkorning o‘zi yashab o‘tgan davr bilan bog‘liq. Ijtimoiy va tarbiyaviy jihatdan katta kasb etuvchi hikoyalardan biri Bemordir. Xalq orasida bir naql yuradi. ”Yer yuzida yomon insonlar ko‘p emas ularga qarshi kurashmaydiganlar ko‘p. Bemor ayol sifatida butun boshli millatning o‘sha davrdagi taqdiri ochilib beriladi.

Sotiboldi guvohi bo‘lganimizdak chigit va po‘choq kunjara bilan savdo qiladigan Abdug‘aniboyning qo‘lida xizmat qiladi. Sotiboldi bemor xotinnini do‘xtirga ko‘rsatish uchun talab qilinadigan 25 so‘m pulni u faqat tushida ko‘rishi mumkin. Sotiboldi topgan pul bir marta tabib chaqirishga, bir marta tovuq so‘yishga, kasalni baxshiga o‘qitishga yetadi va tugaydi.

Chilyosin o‘qitishga o‘zi to‘qigan savatchalarni ulgurchi narxlarda baqqoldan yigirma tanga qarz olib ko‘tarishga mavjud. Bu hali hammasi emas, endi o‘lgan xotini ko‘mishi, uning ma‘rakalarni o‘tkazishi lozim. Ya‘ni bularning hammasi pul bilan bo‘ladi. Bunday vaqtda yo‘gon cho‘ziladi-ingichka uziladi. Qishloqdagi dehqonlar kun bo‘yin o‘g‘ir mehnat qiladi, evaziga oz haq oladi. Oila boqish farzanlarni o‘qitish masalalari kishilarni og‘ir ahvolga solgan. Nochorlik kishilar turmush darajasining tobora pasayib borishiga turli kasalliklar tarqalib oddiy betoblik ortidan odamlarning hayotdan ko‘z yumib ketishiga sabab bo‘lgan. Tibbiyot masalalarni hal etishga deyarli e‘tibor berilmas, faqat harbiylar va mahalliy boylargina malakali tibbiyot xizmatidan foydalanish imkoniyatiga ega edi. Ilojsizlik biror joydan umid yo‘qligi Sotiboldining

ozgina yordamiga umid qilgani xo'jayini Abdug'aniboy edi. O'zi omborda qulab ketgan qoplar ostida qolib o'ladigan paytida markaziy Farg'ona shahriga borib davolanib kelgan. Bu bag'ritosh kimsa xizmatkorining ayoli yosh bo'lib ketishi mumkunligini bila turib zarracha yordam ko'rsatishga yaramaydi. Nahotki bir ayolning hayotida izvosh va oqpodshohning sur'ati solingan 25 so'mlik pul azizroq, qimmatroq bo'lsa. Nochorlik sababli ayolni kasalxonaga olib bora olmaydi. Xo'jayindan qarz so'raydi. Asarning eng ayanchli haqiqatlardan biri ushbu davrda faqatgina iqtisodiy emas balki qashshoqlik ham keng avj olgan. Bunga isbot imkoniyati bo'la turib Abdug'aniboy ishchisiga pul bermasligini olishimiz mumkin. Ayolning yoshligi mittigina qizalog'i borligini ayolning hayotini asrab qolishga umid borligini bilsada yordam bersada yordam bermaydi. O'sha davrning boy kishilari bir nochor ayolning umri bir farzandning onasi bir insonning rafiqasi hayotini saqlab qolishi mumkin bo'lgan pullarini qizg'onadi. Bu davrda qashshoqlik juda kuchayadi. Hikoyada Sotiboldi va ayolning qarindoshlari haqida so'z yuritilmaydi. Bu qarindoshlar yo'qligi emas yordam beruvchilar yo'qligini bildiradi. Bemorning qanday kasallikka chalinganligi haqida ham so'z bormaydi. Uning kasalligini tabiblar, baxshilar ham bilmaydi. Zamon ilmsizligining qurboni bo'lgan bu kimsalardan biri tabib. Tabib ayolning nima kasalligini bilmay turib un dan qon oladi. Shu sababli betobning ko'zi tinib boshi aylanadigan bo'lib qoladi. Demak tabib bemorga foyda emas zarar. Tabib bu davolash usulini Sotiboldining xotini emas o'sha atrofdagi yuzlab bechoralar ustidan qo'llaydi. Tabibdan keyin xonaga baxshi kiradi. U xotining yoniga o'tirib bir narsalarni o'qiydi. Lekin bu o'qigan narsalari xotinning dardiga em bo'ladimi yo'qmi u bilan ishi yo'q. Baxshi ham qayerga chaqirilsa kasalga ro'paro kelsa ko'r-ko'rona yodlab olgan narsalarini o'qib chiqib ketaveradi. Sotiboldi yana xotini nima kasalligining bilmay u tolning xipchini bilan savalaydi, tovuq so'yib qonlaydi. Hikoyaning mazmun-mohiyati ta'sir kuchi holi bu bilan tugamaydi. O'layotgan xatni uchun biror nojon yo'lini topolmay. Sotiboldi qo'shni kampirning maslahati bilan endi 4 yashar qizchasining saharlab turib uyqusiragan holda qiladigan duosiga umidvor bo'ladi. Qarang butun boshli jamiyat bor, doktorxona bor, tabib bor, baxshi bor, qo'lida pul o'ynagan boylar bor, har qanday mehnat bo'lsa qilishga rozi Sotiboldi bor biroq najot yo'q. Bor yo'g'i umid 4 yasharlik qizning ojiz duosi.

Demak bemor faqar Sotiboldining ayoli emas butun bir jamiyat bemor hasta najotga zor muhtoj.

Xulosa A. Qahorning bemor hikoyadida XX asrning bir qancha haqiqatlari yoritib beriladi. Jumladan ilmsizlik, qashshoqlik insoniy fazilatlarining inson bolalaridan uzoqlashishi kabilar. A. Qahorning hayotining ko'plab haqiqatlarini o'zida jamlagan bu kichik hikoyasi asrlar davomida o'z ahamiyatini yo'qotmay kelmoqda. Bemor

hikoyasi o'zining salohiyati insonoyatining cheklangan va bepayon imkoniyatlarini erkin yoritganligi bilan keng maqtovlar va olqishlarga sazovor bo'ldi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati**

1)6-sinf adabiyoti 1-qisim

